

Toshkent b'T "Namangan poezdi keldi. Provodnik ikki oyog'ining tizzasidan bir qarich pasti kesilgan nogiron kishini to'rtta podshipnikka o'rnatilgan aravachasi bilan ko'tarib tushdi. Uni shu ko'targancha stansiyadan tashqariga, asfalt yo'l boshlanadigan joyga chiqib vokzal chiroqlarining yorig'i tushib turgan yerga qo'yari ekan.

- Ana endi "Chayka"ni shaldiratib ketaverasiz, - dsb yelkasiga qoqib qo'ydi.

Hali tong otmagan, ufq cheti endi oqarib kelayotgan mahal. Qorong'ida aravacha ovozi asta uzoqlashib boradi.

Osmom etagi oqara boshladi. Nogiron yo'lovchi hamon ikki taxtakach tayanchini asfaltga qadab oldinga intilyapti. G'ildirak shaldirab-qaldirab asta siljib borardi. Yo'lovchining qo'llari toldi shekilli, aravacha xuddi benzini tugayotgan mashinaga o'xshab siltab-siltab arang yo'l bosardi.

Allaqachop tong yorishib ketganiga qaramay, bir yep-gil mashina olisni yorntuvchi chprog'ini o'chnrmay o'kdsk uchib kelardi. Uning o'tkir nuridan yo'lovchining ko'zla-ri qamashdi. Mashina xaydovchisi uni o'n besh metrcha oraliq qolgandagina ko'rди, zarb bilan tormoz berdi. U g'iyqillab kelib yo'lovchining aravachasiga urildi. Yo'lovchi ag'darilib tushdi. Aravachasi to'nkarilib qoldi. Mashina xaydovchisi ayol kishi ekan, qilib qo'yanishidan qo'rqqanidanmi, es-xunlini yo'qotib qo'yanidanmi, gandiraklab yo'lovchining tepasiga keldi. Yonboshlab qolib, o'zini o'nglay olmayotgan yo'lovchining qo'lting'idan olib yerga o'tqazib qo'ydi. Ayoldan tamaki tutuniga qorishiq konyak isi burqsirdi. Yo'lovchi sergaklandi.

- Hozir... xozir aravachangizni xam o'nglab beraman, - dedi u.

Yo'lovchi hayrat bilan, afsus-nadomatlar bilan ovoz chiqardi:

- Suxsura, senmisan?..

Ayolning aravachaga uzatgan ko'li xavoda muallaq qoldi. Orqaga bir kadam tisarildi.

- Abdulla aka.

Ular bir-birlariga xayrat va daxshat bilan qarab turishardi.

Mashina kabinasidan erkak kishiiig shirakayf tovushi eshitildi:

- Nima kilayapsan? o'lмаган bo'lsa bo'pti-da, qayt orqangga, Suka.

Suxsura dsb atalmish ayol orkasiga tisarila-tisarila mashina tomon boradi.

- Kim ekan u? - dedi talaffuzidan qaysi millatga mansub ekanini bilib bo'lmaydigan bir oxangda.

- Bilmasam, - dedi Suxsura zarda bilan.

- Tezroq xayda. Ering soat to'qqizda o'tadigan Toshkent poezdida qaytadi. U kelguncha qishloqqa yetib olaylik. Meni

Geldievaning uyiga tashlab o'tarsan. Jindek mizg'ib olmasam, bo'lmaydi. Qachon uchrashishimizni Geldieva aytadi.

Suxsura ko'zyoshlarini tiyolmas, unsiz yig'lab mashinani arang boshqarib borardi.

Abdulla otliq yo'lovchi chaqmoq urgan odamdek esankirab qoldi. Nima bo'ldi?

Hozirgina nafasi-nafasi bilan to'qnashgan, ovozini aniq eshitgan Suxsurani tugaida ko'rdimi, yo u g'oyibdan paydo bo'ldi-yu yana g'oyibga qaytib ketdimi?

Yo'lovchi uzoqlashib ketayotgan mashina orqasidan hay-ronu lol qarab qoldi.

U bundan o'n yilcha oldin raykom byurosida suyuqyoq Geldieva degan ayolning raykom sekretarligiga o'tayotganda ovoz bermagan Abdulla g'apporov edi. O'sha paytda g'apporov rayoi gazetasining muharriri va raykom byurosining a'zosi edi. O'shanda Geldieva uni millatchilikda ayblagan: "Erim rus bo'lgan uchun shunday qilyapti", - deb da'vo qilgan edi.

Geldieva uni sudga bergen, sud esa "xalqlar do'stligini tan olmagan, aynijsa, ulug' rus og'amizning tinch-totuv oilasiga rahna solmoqchi bo'lgan" millatchi g'apporovni yetti yil qamoq jazosini o'tashga hukm qilgan. Hukm o'qilganda Geldieva:

- Erim ulug' rus xalqining vakili ekanidan faxrlanaman. Sen esa qamoq jazosini o'tab kelganipgda xotiningni bir chulchutning qo'ynida ko'rasan, - dsb "bashorat" qilgan edi.

Bir vaqtlar yursa sr gursillaydigan, bilagiga kuchi sig'magan g'apporovniig xotindan omadi kelgan edi. Ko'rgaining ko'zini kuydiradigan tengsiz go'zal umr yo'ldoshi bilan baxtisr bo'lgan, endi esa tom ma'noda yarimta bo'lib qolgan, raqibiga zarba berish imkoniyatidan mutlaqo mahrum bo'lgan g'apporov qishloqda o'zini qanday savdolar kutayotganini hali bilmasdi.

Oftob charaqlab chiqdi. G'apporov atrofga alanglatdi. Shundagina yo'l chetidagi devordan shoxlari ko'chaga oshib o'tgan azim tup marvarid tutga ko'zi tushdi. Har bittasi bodrokdek keladigan oppoq tutlar yer bilan bitta bo'lib yotardi. G'apporov lagerlarda sarson-sargardon kezgan paytlarda tuitiga mahalla masjidining hovlisida o'sgan tut kirardi. Qo'yniga yarimta kulchani solib, shoxlarda g'arq pishgan tutlarni nonga ko'shib to'yib yegan paytlarini eslardi. Endi bu damlar aslo qaytib kelmasligini o'ylab ichichidan xo'rsinib qo'yardi.

G'apporovning lablari quruqshab, kechadan beri suv ko'rmanan og'zida tili aylanmasdi.

Tanu joni sog' odamga ikki qadam, g'apporov uchun yetib bo'lmas olis egaik bir vaqtlar uning qo'lida korrektor bo'lib ishlagan Zumrad xolaning xovlisi edi. Rahbarlarning nutqlari bosiladigan kuni gazetaga ko'pincha yarim kechasi imzo chekilardi. Shunday paytlarda g'apporov uni shu uyga mashinada opkelib ko'yardi.

Taxta yashiklardan yasalgai darvoza biqshshagi eshik ochilib, ko'lida supurgi bilan bir kampir chikdi. Bu Zumrad xola edi. U xar kecha yotish oldidan supaga chodir yozib ko'yari, ertalab to'kilgan top-toza tutlarni tog'oraga solib, yo'lovchilarining og'zi tegsin, deb yo'l chetiga oborib ko'yardi. Yerga to'kilganlarini supurib tuxumi shirin bo'ladi, deb tovuqlarga berardi.

Zumrad xola xam qarib qopti, sshi saksonni qoralab qolgandir-ov, deb ko'nglidan o'tkazdi g'apporov.

Zumrad xola tut to'ldirilgan tog'orani yo'l chetiga olib kelarkan, besh-olti kadam narida - asfalt yo'lning o'rtaSIDA o'zini o'nglayolmay kiynalayotgan ikki oyog'i to'mtoq odamni ko'rib,unga tomon yura boshladi.

- Senga nima bo'ldi, bolam? - dedi tspasiga kelgach. Unga yaqinlashib tikildiyu xayratdan yoqasini ushladi. - G'apporovmisan, senga nima bo'ldi? Seni shu alpozda ko'rmay mengina o'lay.

Zumrad xola undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan, ikki nevarasini shu g'apporov Toshkentga oborib o'qishga joylagan, har bayramda uni sovg'a-salomlar bilan yo'qlab turadigan ajib bir mexribon inson edi.

Zumrad xola shoshib uyga kirib ketdi. Uxlab yotgan o'g'lini uyg'otib chikdi. Uning o'g'li rayon pochtasining usti brezentlik yuk mashinasini minar, Toshkent poezdida rayon pochtasiga keladigan xatlarni, posilkalarini olib qaytardi. Navbatdag'i Toshkent poezdi kelguncha mashinani hovliga kiritib, ozgina mizg'ib olardi.

Ona-bola g'apporovning tepasiga kelishdi. O'g'li g'apporovni bola ko'targandek qilib bag'riga bosib ko'tarib oldi. Zumrad xola asfalt yo'lida to'nkarilib yotgan aravachani sudrab supa oldiga kelishdi. Kampir to uydan ko'rpacha olib chiqquncha o'g'li g'apporovni ko'targanicha turardi. G'apporovning tomosh' quruqshaganidan tili gapga aylanmas, so'z o'rniqa xirillagan xunuk ovoz chiqarardi. Kampirning o'g'li uni xuddi kapalakdek ehtiyyot qilib ko'rpachaga o'tqazdi. Kampir choy damlagani kirib ketarkan

o'g'liga:

- Oftobro'y tarafdag'i shoxni silkit. Pishgan-pishgan tutlarni patnisiga terib ol, - dedi.

Bir ozdan keyin Zumrad xola qo'lida choynak-piyola bilan chiqdi. G'apporov choy to'la piyolani olarkan:

- Shoshilma, sal kaynog'i tushsin, - deb ogohlantirdi.

G'ashyurov chidab turolmadı. Og'zi kuysa ham, ikki ho'plashda piyolani bo'shatdi. Yana ichdi. Uch piyolani bo'shatgandan keyin ko'rib qolgan qovun po'chog'idek bo'lib tang-layiga ilashmayotgan tili yumgaadi. Xirillashi ham bosildi.

- Rahmat, xolajon.

- Rahmat dema, bolam. Yaqin odamlarimizdan, qadrdonlarimizdan bir piyola choyni ayasak, Xudoning g'azabiga uchramaymizmi? Bolam, endi manavi tutni yeb ol. Tut yemaganingga ham o'p yil bo'lib qolgandir?

G'apporov bosh qimirlatib qo'ydi. Uning xayoli bu-tunlay boshqa yokda - ahd-paymonlarini burbod qilgap Suxsurada edi. Olis yurtlarda tushlariga kirgan tutlar shu topda yer bilan bitta bo'lib yotardi.

Birov, falonchi o'lsin-e desa, unaqa demang, tut pishig'ini ko'rib qolsin, dsyishadi.

Tut pishig'i xosiyatlari fasl. Ana ketamanmana ketaman deb, o'limini kutib yotgan bemorlar tutga og'izlari tegishi bilan quvvatga kirib, yurib ketadilar.

Tut pishig'i yoz fasliga eshik oshib beradi.

- Endi qayoqqa borasan, bolam? - dsdi Zumrad xola.

- Uyga boraman, - dedi g'apporov qat'iy qilib.

- Borma, shu yerda qol. Suxsura endi senga xotinlik qilmaydi.

- Baribir uni ko'rigaim, nega bunaqa yo'lga kirganini bilishim kerak.

- Xotiningning husni boshiga balo bo'ldi. Yaramas, buzuq Geldieva uni shu ko'yga soldi. Uyingga borma, bolam, borma.

Hozir hech qanaqa gap g'apporovning kulog'iga kirmasdi. Oxiri noiloj qolgan Zumrad xola o'g'liga:

- Nuriddin bolam, akangni oborib qo'ygin, - deb buyurdi.

Mashina g'apporovning totli damlari kechgan, baxtli umrining unutilmas daqiqalariga guvoh bo'lgan qadrdon uyi eshigi oldida to'xtadi. Nuriddin eshikni itargan edi, ochilib ketdi. U g'apporovni ko'tarib hovliga olib kirdi. Aravachasini tekis yerga qo'yib, ustiga uni o'tqazdi. Sahni yer bilan teng xonanining eshigi qulflanmagan ekan, halqasidan tortganda ochilib ketdi.

G'apporovning xushi o'zida emasdi. Nazarida xaqikiy Suxsura chiqib bo'yning osplib, qayoqlarda yuribsiz deb lablarini burib, ta'na qiladigandek edi.

G'apporov atrofga alangladi. Hovli ayol kishining oyog'i yetmagan, biron marta supurgi ko'rмаган, fayzsiz, farishtasiz edi.

Vinodan bo'shagan shishalar, g'ijimlab tashlangan papiros qutilari sochilib yotar, atrofida kul uyilib qolgan kabob ko'rasi yonida ko'mir to'ldirilgan shlyapa. Toshkentga borishganda uni Suxsutsa sovg'a qilgan, o'z qo'l bilan kiydirib qo'ygan edi. O'choq chetidan irkit qozonsochiq osilib turibdi. Bu matbuot kuni g'apporovga redaktsiya xodimlari sovg'a qilgan yashil galstuk.

Hovli eshigi berk paytlarda pochtachi devordan otib tashlagan xatlar sochilib yotardi. Bu qo'lda yasagan konvertlar ichida g'apporovning olis lagerlardan yuborgan, ko'z yoshlarga qorishiq xatlari, iztirob to'la dardlar o'ksib yotardi. Ularning birortasi ochilmagan. Konvertlarda oyoq izlari qolgan.

G'apporov aravachasini shildiratib xonaga kirdi. Dimog'iga qo'lansa konyak xidi urilib, ko'ngli behuzur bo'ldi.

Suxsura xonada yo'q. Yaqinda chiqib ketgan bo'lsa kerak, xona ichida sigareta tutunlari xali ham suzib yuribdi. Stol ustida kursi. Tepasida shiftdag'i ilgakka tashlangan arqon osig'ligicha qolgan. Demak, Suxsura o'zini osmoqchi bo'lgan, lekin jur'atsizlik qilib niyatidan qaytgan. Stol chetida ikki buklangan qog'oz, unga uzuk bostirib qo'yilgan. G'apporov uzukni olib u yoq-bu yog'iga qaradi. Bu o'sha - nikoh kechasi Suxsuraning barmog'iga taqib qo'ygan uzuk edi. G'apporov ko'zlarini yumi. Qulog'iga yordos'tlarning chapaklari, "gorko-gorko" deb qichqirishlari eshitilib ketdi.

G'apporov qo'llari qaltilab qog'ozni oldi, ochdi. Xuddi hozir mo'b'hjiza ro'y beradigandek shoshib o'qiy boshladı:

"Abdulla aka, bu xatni ixtiyori qo'lidan ketgan, ochiqda yurgan bir "mahbus", gunohlarga botgan Suxsura otilq Xudoning bir bandasi yozyapti. Bir vaqtulari yog' tomsa yadagudek bo'lgan hovlimizni bu ahvolda ko'rib hayron bo'lman. Sizni "xalq dushmani" deb olib ketganlaridan bir yil o'tar-o'tmay, uyimiz davlat foydasiga musodara qilingan. Sobiq hovlimizga kirmaganimga ko'p yillar bo'lgan. Endi bu hovlida boshimizga shu qaro kunlarni solgan Geldieva-Andreeva keldi-ketdi "mehmonlar"ni kutadi.

Bugun spzni ko'rganimda, albatta, shu uyga kelishingizni bilardim. So'nggi marta ko'rib qolish uchun intiqlik bilan kutib o'tirdim.

Birinchi may arafasida Geldieva-Andreeva nima bilandir mukofotlangan ekan. Bir hafta burun bu hovlida mukofotni yuvish marosimi bo'lgan. Mast-alast rahbar xodimlar communist Geldievanning salomatligi uchun to'yguncha ichishgan.

Boshimdan o'tgan savdolarii aytib bermoqchi edim. Ammo ko'zingizga qarashga dosh berolmasligimni bilib xat yozayapman. Shoshib turibman. O'lishim kerak. O'zimni osmoqchi edim. Mendek xiyonatkor xotin uchun bunaqa jazo juda jo'n, juda oson bo'lib tuyuldi. Men ana shuning uchun xam o'zimga atab tikkan dorning sirtmog'iga boshimni suqmadim. Men eng dahshatli jazoga loyiq xotinman. Bir necha daqiqadan keyin shunaqa o'limni kidirib chiqib ketaman.

Men siz bilan baxtiyor edim. Cheksiz baxtiyor edim. Baxtimni yulib oldilar, olis yurtlarga uloqtirdilar. Men sizni jon-dilim bilan, butun vujudim bilan yaxshi ko'rardim. Dilimni vayron qildilar. Vujudimga ega chiqib oldilar. Men ochikda yurgan bir mahbus bo'lib qolganman. Ustidan istaganlaricha hukm yuritaveradilar.

Endi nomim Suxsura emas, Suxsurka bo'ldi. Bu ham yetmagandek, Suxsurka nomim qisqartirilib Suka bo'ldi.

Bank bogaqaruvchisi Akopov astoydil yopishib oldi. U pasportimga allaqaysi ZAGSdan nikoh muhrini bostirib kepti. Beixtiyor uning xotini bo'lib qoldim.

Geldieva-Andreeva hamon ortimdan qolmaydi. Allaqaerdan bir barzangi yuristni bogalab keldi. Shu hov-limizda, mana shu xozir men sizga xat yozayotgan joyda unga boshimdan o'tgan savdolarni aytib berdim. U nimalarnidir yozib oldi. Keyin "eslab yuring" deb sizga yuborgan suvratimni ko'rsatib: "Ering seni menga qimorga yutqazgan, endi bu suvrat ham seniki bo'ldi deb, o'z qo'l bilan bergen", - deb aytди. Uning vajohati yomon edi. Yonidan pichoq chiqarib, bo'g'zimga qadadi. "Yo meniki bo'lasan, yo shu yerda qonga belanib o'liging qoladi. Endi sen mening tirik mulkinsan" - deya hirs bilan bag'riga bosa boshladı... Eshik poylab o'tirgan Geldieva-Andreeva: "Mana, 6u boshka gap. Unga itoat qil, bo'lmasam xolingga voy" - deb iljayib chikib ketdi.

U millatinning xam, dinshpshg xam tayini yo'k bir chulchut. O'g'rilari olamida "Tarakap" nomi bilan mashhur bo'lgan Brika degan karokchi ekan.

Aytingchi, shunaka xotin bilan yashashga rozi bo'lasizmi? Siz rozi bo'lsangiz xam, men rozi bo'lmayman. Pok odamning to'shagini noplak tanam bilan bulg'atishga ko'ksimda tasodifan saqlanib qolgan ignanining uchidek zarra diyonat bunga yo'l bermaydi.

Xayr endi. Eng dahshatli, eng azobli o'limni izlab ketdim".

G'apporovning boshi g'uvilladi. Naxotki, Suxsura o'zini o'ldirgani ketdi? Orqasidan yugurib borib to'xtatib qolishga ilgari istagan yeriga zumda oboradigan oyoqlari endi yo'k, olis yurtlarda qolib ketgan. Inson uchun eng dahshatli fojia - bu nochorlik. Uning miyasiga kelgan o'ylar xuddi radioto'lkinlaridek uzlusiz almashinib turibdi. Geldieva-Andreeva xozir Suxsurani so'roqlab keladi. U egalik kilayotgan uyda begona odam o'tirganini ko'rsa, shang'illab, to'polon qilmaydidi? Endi 6u uyda g'apporovning zarracha xaqqi yo'q. O'z uyingga o'zing sig'maydigan zamonlar kelibdi. U aravachasini shaldiratib ko'cha eshigi oldiga bordi. Ikki poya zinadan tusholmasligidan afsuslanib, birorta yo'lovchi o'tib qolishini kuta boshladi. G'ildiragining yeli chikib ketgan velosipedini yelkalab bir yigit kela boshladi.

- Ukam, meni shu zinadan tushirib qo'y.

Yigit velosipedni devorga tirab oldiga keldi. G'apporovni aravachasi bilan ko'tarib yo'llkaga olib qo'ydi.

Olsidan mashinalarning o'tkir sirenalari eshitila boshladi. Birozdan keyin yig'ma narvoni baland imoratlarning tomigacha yetadigan o't o'chirish mashinasi uzlusiz qichqirib o'tib ketdi. Undan so'ng poezd vagonlarini ham ko'tara oladigan ko'tarma kran, "Tez yordam" xamda militsiya mashinalari xammayoqni shovqinga to'ldirib o'tib ketishdi.

Oynalari koraytirilgan bir "Pobeda" mashinasi g'apporovning shundok yonginasiga kelib to'xtadi. Undan qora ko'zoynak taqqan ellik yoshlardagi bir kishi tushdi. U negadir juda shoshar, atrofga tez-tez alanglab olardi. U g'apporovni azot ko'tarib mashinaning old o'rindig'iga o'tqazdi. Keyin aravachani orqa o'rindiqqa joyladi. Shoshib mashinaga chikdiyu, motorga o't berdi. G'apporov uning kimligini bilmasdi. Kimligining axamiyati xam yo'k edi. U anchagina yo'l yurgandan keyin ovlok joyda, kalin o'sgap butalar panasida mashinani to'xtatib, ko'zidan oynagini oldi.

- Endi tanidingizmi, Abdullajon? - dedi u kulimsirab.

U asli xakkulobodlik Karimjon degan, lagerlardan yetti marta qochgan, xar qo'lga tushganda yigirma besh yil muddatga xukm kilingan, jami 175 yil muddatga kesilgan mahbus edi. Lagerlardagi zo'ravon-blatnoylar, bir pachka maxorkaga odamni sobit yuboradigan seksotlar undan ajaldan ko'rkkandek ko'rquardilar.

Karimjon endi o'ninchisi siifni bitiraman deb turganda otasini "xalq dushmani" deb qamab yuboradilar. Ukalari, singillari vodiyning turli yetimxonalariga tarkalib ketadilar. Shunda o'sha paytda kolxoz raisi bo'lgan g'apporovning otasi shu Karimjonning boshini siladi. O'ninchini bitirayotganda ko'ngli o'ksimasin, deb bosh-oyok kiyintirdi. Karimjon maktabni bitirishi bazmida otasini, singillarini o'ylab, shu himmatli, shu muruvvatli odamga qachondir bir yaxshilik qilishini diliga tugib qo'ygandi. Vodiy yetimxonalarini kezib singillarini, ukalarini topolmagan Karimjon qaytib qishloqqa qadam izi qilmay ketdi.

Mahbuslikda yurgan g'apporovning xam, ochikda yurgan xotinining ham boshiga tushgan kulfatlarga Suxsura yuborgan suvrat sababchi bo'lgan edi. Tarakan laqabli barzangi - ilgari militsiya tergovchisi bo'lib, "aybi"ni bo'yninga olmagan maxbusni urib o'ldirib ko'ygani uchun kamalgandi. "Brika" otlik shafqatsiz 6u odam o'sha laqab bilan mashxur edi. Tarakan g'apporovning ko'lidan Suxsuraning suvratini tortib olib, o'zi yotadigan joyning devoriga yopishtirib ko'ygandi. G'apporov Xudoning zorini qilib yolvorsa xam, bermagan. "Sen bunaqa jononga munosib emassan" deb barak eshigi oldidagi axlat bo'chkasining yonida yotishga majbur qilgan edi.

Tasodifan lagerga Karimjon kelib qoladi. U g'apporovni ko'rib hol-ahvol so'raydi. G'apporov unga Tarakan azob berayotganini, xotinining suvratini olib qo'yganini aytadi. Shunda Karimjon Tarakanning yoqasidan sudrab tashqariga olib chiqadi, axlat bo'chkasini ko'tarib to'kib kelishga majbur kiladi. Suvratni undan olib, o'zini axlat bo'chkasining yonida yotishga majbur qiladi. O'shanda qish juda qattiq kelgandi. Qarag'ay kesishga olib chiqilgan mahbuslarning ko'pisovukdan mudrab uqlab qolishar, uyuq ichida dunyodan ko'z yunganlarini sezmay kolishardi.

Shunday kunlarning birida g'apporov qarag'ayga suyanib, boshiga tushgan savdolardan ezilib o'tirardi. Ko'zi ilingan paytda Tarakan uning oyog'idagi piymaning qo'njiga iliq suv kuyadi. Ko'z ochishga madori qolmagan g'apporov iliq suvdan roxatlanib uqlab qoladi. Bir maxal qattiq oyoq og'rig'idan qichqirib ko'zini ochadi. Piymaning qo'njiga quyilgan iliq suv sovib, muzlab qolgan, ikkala oyog'in chidab bo'lmas darajada qisardi. Uning alamli tovushini eshitgan mahbuslar toshga aylangan piymani yechib ololmadilar. Ikki konvoy zambilda uni zonaga olib ketadi. O'sha kuni tun yarmida jarrohlar uning oyog'ini kesishadi. Karimjon 6u ishlardan xabari yo'q. U yana qochib ketgan edi.

Ko'chadan bir yuk mashinasi gurillab o'tib ketdi. Karimjon shoshib ko'zoynagini taqib, o'zini panaga oldi.

- Kayoqqa oborib qo'yay? - dedi Karimjon. G'apporov yelka qisib qo'ydi. - Tezroq aytin, vaqtim ziq. Men Tarakanni qidirib kelganman. Sizning o'chingizni olishim kerak. Otangiz menga yaxshilik qilganda, qachondir uning bu yaxshiligiga yaxshilik kaytarishni dilimga tugib qo'ygandim.

- Shoshmang, Karimjon, Tarakanning qaerdaligini men bilaman. Geldieva-Andreevaning uyida yashirinib yotibdi.

Karimjon uni Zumrad xolaning eshigi oldida tushirib, zudlik bilan orqasiga qaytib ketdi. G'apporov uni shundan keyin ko'rmadi. O'sha kuni Karimjondan: tutib kelishlarini bilaturib yana qochasiz, bu qochishlar joningizga tegmadimi, deganida u shunday javob qilgan edi.

- Oh, ukaginam, ozodlik, erkinlik Xudoymuning inson bolasiga atagan bir buyuk ne'mati ekanini nahotki bilmasangiz? o'sha bukj ne'mat tikanli simning naryog'ida. U yerda havo boshqacha, shamol boshqacha, oftob boshqacha. Shu tikanli simning naryog'iga o'n qadamcha yurib osmonga bir qarang, mana shu o'tirgan yeringizdan ko'rinnagan yulduzlarini ko'rasiz. Osmonning tiniqligini, so'ngsizligini shu atigi o'n qadam narida ko'rasiz. Men bu yerda baxtsizlik, erksizlik xavosida bo'g'ilib ketaman. Odamlar yiliga bir marta kurortga borib keladilar. Men xam ana shu "erkinlik" deb atalgan "kurort"da dam olib kelish uchun qochaman Uning oxirgi uchrashuvida aytgan bu gaplari erkinlik uchun, ozodlik uchun jonipi ayamaydigan insonning ich-ichidan toshib chiqqan armonli, o'kinch to'la faryodi bo'lib g'apporovning xotirida qolgandi.

- Qaytib kelishingni bilardim. O'z qo'ling bilan qurban uyingga bir kun ham sig'masligingni bilardim - deb g'apporovni kutib oldi Zumrad xola.

G'ashyurov qattiq charchagan, uyqusizlik uni adoyi-tamom qilgan edi. U hamma narsani unutib, mudroq bosib o'tirardi. Kampir uni ichkariga olib kirdi. Supaga joy qilib, nevarasiga uni ko'tartirib supaga yotqizdi. G'aiporov yotdi-yu uqlab qoldi. Uning bosh tomonida o'tirgan Zumrad xola iyagiga kaftini tirab o'y o'ylardi. Ko'zlaridan oqayotgan yeshni ham sezmasdi.

G'apporov shu uqlaganicha sahar payti Nuriddin Toshkent poezdidan pochta olib kelganda mashinasining gurillashidan uyg'onib ketdi.

Kecha Karimjon bir gap aytgan edi: "Bilasizmi, men shuncha yil qamoqda yashab, xoinlarga ofat bo'ldim. Uraverdim, uraverdim... Ammo qon to'kmadim. Topib bo'lmaydigan bo'lib tarqab ketgan singillarim uchun, ukalarim uchun, otib o'ldirilgan dadam uchui

This is not registered version of TotalDocConverter

umming Xalqaro qurʼoniyat. Boshon inchi yana tutishadi. Yana yigirma besh yil muddat berishadi. Bu yigirma besh yillar avvalgi yigirma besh yillar ustiga bostiriladi. Shunda toʼrt yuz yilga kesilgan boʼlaman. Xudo xohlasa, shu toʼrt yuz yilni yubiley qilaman" deb kulgani edi.

Zumrad xolaning bechorahol beva qoʼshnisi obdastada suv olib keldi.

Nuriddin bir vaqlar u muharrir boʼlgan rayon gazetasining bugungi sonini uzatdi.

Gʼapporov qoʼlidagi choy toʼla piyolani dasturxon chetiga qoʼyib, shoshib qadrdon gazetani varaqlab sahifalariga koʼz yogurtira boshladi. Toʼrtinchı sahifa tagidagi taʼziyanomaga nogahon koʼzi tushdi:

"Rayon banki jamoasi boshqaruv raisi komunist Vazgen Akopovga turmush oʼrtogʼi Suxsura Akopovaning fojeona oʼlimi munosabati bilan chuqur taʼziya izhor qiladi".

Gʼapporovning koʼzlari tinib ketdi. Xoʼrsindi. Ichidan chiqqan qaynoq nafas boʼgʼzini kuydirib oʼtdi. Turli azoblarni, xoʼrliklarni koʼraverib, chidayverib pisib ketgan gʼapporov bu xil zarbaga chidash bermadi. Bir qalkib oldi. Ingrab unsiz faryod urdi.

Qandaydir tubsiz chukurlik kaʼriga tortayotgandek edi. Shu jarlik qaʼrida Suxsura unga taʼna bilan qarab turganga oʼxshayverdi.

Zumrad xolaning ovozi uni xushiga keltirdi. Kampir oʼgʼlidan rayonda nima gap, deb soʼrayotgan edi.

- Anavi oʼris eri kochib ketgan Geldieva-Andreeva bor-ku, oʼshani Tarakan degan bosqinchi bilan ikkavining boʼyniga kimdir bitta sirtmok solib yongʼoq shoxiga osib ketibdi.

Hech kimdan sado chiqmadi. Bu Karimjonning ishi ekani aniq edi.

- Suxsurani Qorajardan oʼt oʼchiruvchilar kran bilan opchiqishipti. Mashinasining butun joyi qolmapti. Oʼzi tanib boʼlmaydigan darajada majaqlanib ketibdi.

Gʼapporovning ikki koʼzi jikka yoshga toʼldi. Yuzini teskari oʼgirib oh urib yubordi.

Zumrad xola salmoqlanib gap boshladi.

- Endi gapimga qulq sol, bolam. Hadeb kuyaversang adoyi tamom boʼlasan. Senga bir tanmaxram kerak. Bugun xotinim oʼldi, uning tani sovumay turib menga xotin topyapsizlarmi, deb oʼylama. U eidi oʼlgani yoʼq. Oʼlganiga koʼp yillar boʼlgan. Butun rayon xalki uni allaqachon oʼldiga chiqarib qoʼygan. Albatta uni yovuzlar oʼldirishdi. Xor-zor qilishdi. Oyoqostiga olib tepkilashdi. Lekin sen yashashing kerak-ku. Shu axvolda sen kimga keraksan? Zudlik bilan boshingni ikkita qilib koʼyish kerak. Ayol kishi yolgʼiz oʼzi seni eplashtirolmaydi. Yonida bitta dastyor oʼgʼli bor xotin olishing kerak. Oʼgʼil bola senga tayanch boʼladi.

Zumrad xola boy a gʼapporoviing qoʼliga suv quygan qirq yoshlardan oshgan juvonni koʼrsatdi.

- Toʼqqiz yildan beri qoʼshnichilik qilamiz. Qoʼli gul chevar, pazanda ayol. Shuni olib beray, oʼn bir yoshli dastyor oʼgʼli bor.

Shunga oʼzing ota boʼl...

...Xotira maydonida odam koʼp. Kimdir oʼgʼlini, kimdir otasini, kimdir erini, kimdir akasini eslayapti. Odamlar maydonning eng baland joyida tiklangan gumbaz tagidagi ramziy qabr tomon oqib kelyapti.

Nogahon kimdir orqamdan quchoqlab oldi. Oʼgirilib qaray desam, uning baquvvat koʼllari bunga moneʼlik qilardi.

- Kim bu? - dedim ajablanib.

- Toping, - dedi u.

Uning ovozi tanishgga oʼxshab ketdi. Qaerda eshitganman bunaka ovozni?

Ikki qadam narida Zumrad xola shuni senga olib beraman degan beva qoʼshnisi bizga karab jilmayib turardi.

- Gʼapporov, - dedim ishonch bilan.

- Topdingiz, - dedi meni quchogʼidan boʼshatar ekan. Oʼgirildim. Toʼq yashil kostyum-shim kiygan Abdullajon gʼapporov bor boʼyi bilan yonimda tik turardi. Boshqatdan koʼrishdik. Hayajon bilan oppoq sochlarni, yelkalarini siladim. Gap topolmay xayratdan dovdirab qoldim.

- Oʼn kundan buyon Toshkentdamiz, protez zavodida edik. Menga oyoq yasab berishdi. Unga oʼrgangunimcha rosa mashq kildirishdi. Necha martalab yurgizib, necha martalab sozlashdi, - u xotinining qoʼlidan olgan hassa bilan boldirlariga tarsillatib ikki-uch marta urib koʼydi. - Endi tamom, kadrdon shaldiriq arava bolalarga ermak boʼlib qoldi. Biron oyda xassani xam tashlayman.

- Tut pishigʼida sizni kutdik, - dedi gʼapporovning xotini, - ayamning maʼrakalariga kelib qolarmikinsiz deb oʼylagandik.

Yuragim zirkirab ketdi.

- Xudo raxmatli jannati xotin edilar, - dedim xazin bir ovozda.

Odamlar ramziy kabr oʼmatilgap shiypon tomon yopirilib kelishardi. Ular orasida qolib ketdik. Tumonat ichida bir-birimizni yoʼqotib koʼyidik. Prezident shiypondagi qabr yoniga kelib, ikki qoʼlini baland koʼtardi. Maydon birdan jimb qoldi.

Men yurtboshimizning bir vaqlar toʼsdek qop-qora boʼlgan, endi oq oralab siyraklashib qolgan sochlariiga, peshonalariga bevaqt tushgan ajinlariga qarab ich-ichimdan, "Ey xudo, hayotini xalq baxtiga bagʼishlagan, yurtim deb uyqandan, xalovatidan, roxatidan kechgan shu jonsarak insonning umri uzun boʼlsin", deya Ollohga iltijolar kildim.